

BORISH

Gulistn davlat universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrası

*o'qituvchisi **Abdujalilov Bekzod,***

“Ijtimoiy ish” yo'nalishi 4-kurs

*talabasi **Karimova Ozoda Islomjon qizi***

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O'zbekistonda xatar guruhidagi oilalar holatlarining oldini olishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan, xatar guruhidagi oila tushunchasining mohiyati yoritilgan va xatar guruhidagi oilalar toifalari tasniflangan, bu turdagi oilalarning yuzaga kelish asosiy sabablari va salbiy oqibatlarini ko'rib chiqilgan hamda ilmiy takliflar berib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *Ijtimoiy xavf, xatar guruhi, sadizm, alkolagniya, qadriyatlar deformatsiyasi, ijtimoiy tashxis, ijtimoiy risk, ijtimoiy-demografik omil.*

Аннотация. *В данной статье освещена сущность понятия семья в группе риска и дана классификация семей в группе риска, рассмотрены основные причины и негативные последствия возникновения данного типа семьи, а также разработаны научные предложения и практические рекомендации, направленные на профилактику семей в группе риска в Узбекистане.*

Ключевые слова: *социальный риск, группа риска, садизм, алкоголизм, деформация ценностей, социальный диагноз, социальный риск, социально-демографический фактор.*

Annotation. *This article highlights the essence of the concept of a family at risk and gives a classification of families at risk, examines the main causes and negative consequences of this type of family, and develops scientific proposals and practical recommendations aimed at preventing families at risk in Uzbekistan.*

Kirish. Oila jamiyat tayanchi, mamalakat taraqqiyotida fundamental asos vazifasini bajaruvchi maskandir. Muhtaram prezidentimiz ta’kidlaganlaridek “Eng katta baxt, men buni ming marta qaytarishdan charchamayman, oilamiz tinch bo’lsin! Oila kichik vatan, oila tinch bo’lsa, baxtli bo’lsa, vatan tinch bo’ladi. O’sha baxtli kunlarni, vatanimizning, yoshlarimizning kamolini hozir niyat qilayotganimiz kabi ko’rish hammamizga nasib etsin!”[1] deb bejiz aytmaganlar. Farovon jamiyat negizida tinch-totuv, baxtli oila kabi tushunchalar mujassamlashadi. Bugungi kunda oila farovonligini ta’minlash, oilada sog’lom va barqaror muhitni shakllantirish dolzarb masalalardan biri bo’lib kelmoqda. Oila haqida gapirar ekanmiz avvalo oila qon-qarindoshlik, nikoh orqali yoki birga istiqomat qilish orqali bog’langan insonlardan iborat ijtimoiy guruhdir. Oilaning mustahkam bo’lishi avvalo uning ichki muhitiga bog’liq hisoblanadi. Shuni ta’kidlash joizki oila tarbiyaning eng muhim va boshlang’ich asosi hisoblanadi. Kelajak avlodning barkamol bo’lib yetishishi uchun bevosita oilada milliy urf-odatlar, mentalitetimizga xos bo’lgan muhit shakllanmog’i lozim. Bugungi kunda mamalakatimizda oila farovonligini mustahkamlash yo’lida qator say-harakatlar amalga oshirilmoqda.

Xususan yangilangan konstitutsiyaning 76-moddasida , “Oila jamiyatning asosiy bo’g’inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir. Nikoh O‘zbekiston xalqining an’anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanadi. Davlat oilaning to‘laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi”[2] deb qat’iy belgilab qo’yilgan. Bugungi kunda O‘zbekistonda 2023-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra 9 729 961 ta oilalar mavjud. Shulardan 533 041 ta muammoli oilalar aniqlangan shundan 513 824 ta oilaning muammosi bartaraf etilgan. Albatta bu yaxshi natija, so‘nggi yillarda muhtaram prezidentimiz boshchiligida joylarda ajrimlarni oldini olish maqsadida mahallalarda „Nizoli oilalar bilan individual ishlash tartibi” joriy etildi. Bunday say-harakatlar natijasida muammoli oilalarga har tomonlama amaliy yordam ko‘rsatilmoqda[3].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Insoniyat o‘zini erkin va baxtli his qiladigan maskan bu albatta oiladir. Oilani mustahkamlash faqatgina mamlakat darajasida emas balki butunjahon miqyosida dolzarb masala hisoblanadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi 1993-yil 20-sentabrda 15-mayni Xalqaro oila kuni sifatida nishonlash to‘g‘risida qaror qabul qilinishidan ko‘zlangan asosiy maqsad bu oilalar ahilligi va mustahkamligiga erishishdir. Bu borada mamalakatimizda ham qator islohotlar olib borilmoqda. Xususan “Oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni 07.03.2022 yildagi PF-87-son, “Oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlarning faolligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident qarori PQ-401, 21. 12. 2023 yil kabi qator chuqur islohotlar olib borilmoqda.

Yuqorida keltirib o‘tilgan qonun hujjatlari mamlakatimizda oila mustahkamligi va farovonligini oshirish uchun xizmat qilib kelmoqda. Oila mustahkam bo‘lsa mamlakat taraqqiyoti yanada yuksalib boradi, zero vatan har bir inson uchun ostonadan boshlanadi. Yurtboshimiz bu borada „Odamlarimiz bilishi kerak, oila muqaddas biz uchun oilani saqlab qolmasak, biz o‘zligimizni yo‘qotamiz “- deb bejiz ta’kidlamaganlar.

Asosiy qism. Mamalakatda shunday oilalar borki ularni har tomonlama ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy va huquqiy himoya qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu toifadagi oilalar boshqa turdagi oilalarga nisbatan ko‘proq ijtimoiy qo‘llab -quvvatlashga zarurat sezadilar. Ho‘sh bu toifadagi oilalarga qanday oilalar kiradi: kam ta’minlangan oilalar, ajrim yoqasiga kelib qolgan oilalar, ijtimoiy risk guruhidagi oilalar migratsiya ta’siridagi oilalar, nogironligi bo‘lgan oilalar, to‘liq bo‘lmagan oilalar va boshqalar. Xavf guruhi-a'zolari zaif yoki muayyan tibbiy, ijtimoiy sharoitlar yoki atrof-muhit ta'siridan zarar ko'rishi mumkin bo'lgan guruh; guruh, unda ta'sir qilish dasturini amalga oshirish yoki amalga oshirish rejalashtirilgan. Shuningdek, xavf guruhi deganda o'z hayotining muayyan sharoitlari tufayli bir guruh shaxslar tushuniladi boshqalar jamiyat va uning salbiy tashqi ta'siriga ko'proq moyil ijtimoiy va psixologik noto'g'ri ishlashga olib keladigan jinoiy elementlar. Oila ijtimoiy guruh bo'lganligi sababli,

u ijtimoiy guruhga aylanishi mumkin bir qator ma'lum sabablarga ko'ra yoki normal ishlashning buzilishi tufayli xavf tug'diradi, shuningdek, patologik rivojlanishiga hissa qo'shadigan turli xil sharoitlar ta'siri ostida davlatlar. "Xavf guruhi" oilalariga quyidagilar kiradi:

1. ijtimoiy-iqtisodiy: oilaning past moddiy turmush darajasi, tartibsiz daromadlar, yomon uy-joy sharoitlari va boshqalar;
2. tibbiy va ijtimoiy: ekologik jihatdan noqulay sharoitlar, nogironlik yoki surunkali kasalliklar, zararli ish sharoitlari, sanitariya-gigiyena qoidalariga beparvolik normalar va boshqalar;
3. ijtimoiy-demografik: to'liq bo'lmagan yoki ko'p bolali oilalar;
4. voyaga yetmagan yoki keksa ota-onasi bo'lgan oilalar, takrorlangan oilalar nikoh va o'gay bolalar va boshqalar;
5. ijtimoiy-psixologik va psixologik-pedagogik: halokatli oilalar hissiy va ziddiyatli munosabatlar, ota-onalarning pedagogik muvaffaqiyatsizligi, deformatsiyalangan qadriyatlar va boshqalar;
6. jinoiy: alkogolizm, giyohvandlik, axloqsiz va parazit turmush tarzi;
7. shafqatsizlik va sadizm (alkolagniya jinsiy buzuvchilik)ning namoyon bo'lishi va boshqalar.

Oila farovonligiga rahna soluvchi ijtimoiy xavf omillari turlicha ko'rinishda bo'lishi mumkin. Xususan ijtimoiy xavf omillari quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

1. Ijtimoiy-iqtisodiy omillar (oilaning moddiy ta'minot darajasining past darajada ekanligi, uy-joy sharoitining qoniqarli emasligi, ota-onaning ishsizligi, to'liq bo'lmagan oilalar)
2. Ijtimoiy-demografik omillar (ota yoki onaning qayta turmush qurishi, oilada o'gay farzandlarning borligi)
3. Tibbiy-sanitariya omillar (ota yoki onaning surunkali kasallikka chalinganligi, oilada nogironligi bo'lgan shaxs istiqomat qilishi,og'ir irsiy holatlar)
4. Psixologik-pedagogik omillar (oila a'zolarida shaxslararo munosabatlarning keskin buzilishi,oila a'zolarining qadriyat yo'nalishlarining deformatsiyasi,ajrimdan oldin va keyingi vaziyat,ota-onalarning pedagogik

qobiliyatlarini yetarli bo'lmisligi, ota-onalar va farzandlar o'rtasida hissiy begonalashuv, oila a'zolarining o'zaro muloqot jarayonida muammolar yuzaga kelishi.[5]

Bir so'z bilan aytganda yuqorida sanab o'tilgan muammolar bartaraf etilmasa jamiyatda salbiy oqibatlar yuzaga keladi. Oilada buzilgan kichik ijtimoiy holat jamiyatda katta „Ijtimoiy xavf ” tusiga kiradi. Natijada ijtimoiy xatar guruhidagi oilalar yuzaga kelishi kuzatiladi. Tabiiyki bunday oilalarda nosog'lom muhit yuzaga keladi va o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasiga ulkan salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday oilalar bilan ijtimoiy ish olib borishda quyidagi metodlar samarali hisoblanadi:

1. Diagnostik-oila xususiyatlarini o'rganish va imkoniyatlarini aniqlash.

2. Xavfsizlikni ta'minlash,himoya qilish,oilaning huquqiy kafolatlarini ta'minlash, huquq va erkinliklarini amalga oshirilishi uchun yetarli shart-sharoitlar yaratib berish

3. Tashkiliy va kommunikativ. Oila bilan muloqotga kirishish,o'zaro munosabatlarni yaxshilashga qaratilgan hatti-harakatlar va birgalikda faoliyat olib borish.

4. Ijtimoiy, psixologik-pedagogik. Oila a'zolarining psixologik-pedagogik ko'nikmlaini oshirib borish, shoshilinch psixologik yordam ko'rsatish va bu borada profilaktik ishlarni yo'lga qo'yish.

5. Prognozlash. Vaziyatlarni modellashtirish,muayyan maqsadli dasturlar ishlab chiqish.

6. Muvofiqlashtirish. Tegishli mutassaddi tashkilotlar (aholiga ijtimoiy yordam ko'rsatish bo'limlari, ichki ishlar organlarining oilaviy bo'limlari, mahalla, hokimlik) bilan faol hamkorlik olib borish.

Yuqorida sanab o'tilgan metodlarni samarali amalga oshirish uchun bir necha bosqichda faoliyat yuritish talab etiladi:

-xavf guruhidagi oilalar haqidagi ma'lumotlarni to'plash va qayta tahlil qilish

-ijtimoiy tashxis qo'yish (yuzaga kelgan muammo sabablarini aniqlash)

-oila bilan ishlash jarayonida samarali rejalar tuzish

Xatar guruhidagi oilalar bilan ishlashga qo'yiladigan dastlabki qadamlardan biri bu albatta oila haqidagi ma'lumotlarni to'plash hisoblanadi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad oilaning xatar guruhiga tushib qolganlik sabablarini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mutaxassis samarali ish olib borishi uchun yetarli ma'lumotlarga ega bo'lishi lozim. Xususan oilaning yashash joyi, ro'yxatdan o'tgan hududi, oila tarkibi, oila a'zolarining to'liq ismi sharifi, ularning yoshi, jinsi, millati, iqtisodiy holati, sog'lig'i bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotnomalar, ish joyi yoki ishsizligi (ishsizlik sababalari) va shu kabi aniq ma'lumotlarga ega bo'lishi shart va zarur hisoblanadi. Maxsus ma'lumotlar ish olib borish jarayonida muammolarni obyektiv baholash va vaziyatni chuqurroq o'rganib, muqobil yechimni tanlash, ijtimoiy yordamni manzilli amalga oshirilishini ta'minlaydi. To'plangan ma'lumotlar tahlil qilinadi va ijtimoiy tashxis qo'yiladi. Bu bosqichda oilaga xatar guruhining qaysi tipiga mansub ekanligi aniqlanadi. Oilada aniqlangan xavf holatiga qarab yechimlar ishlab chiqiladi. Bu borada diagnostik ishlar olib borish eng samarali usullardan biri hisoblanadi. Diagnostik usuldan foydalanish mutaxassis uchun qo'shimcha ma'lumotlar to'plashga imkon yaratadi. Keyingi bosqichda mutaxassis oilaga amaliy yordam ko'rsatish uchun tegishli mutassaddi tashkilotlar bilan faol hamkorlik olib borishi talab etiladi. Masalan mahalla, mahalliy hokimiyat, huquqni muhofaza qiluvchi organlar (bundan ko'zlangan asosiy maqsad oilada buzligan huquq va majburiyatlarni tiklash). Oila bilan ishlash jarayonida tashkiliy va kommunikativ metoddan foydalanish oila a'zolari bilan faol munosabatga kirishish, oila a'zolarining o'zaro munosabatlarini yaxshilashga yordam beradi. Bu metodda oilaga ko'rsatilishi zarur bo'lgan yordam turlari aniq yo'naltirilishiga erishiladi. Yana bir samarali metodlardan biri bu pedagogik-psixologik metod, bu usulda ota-onaning farzandlar bilan muloqot jarayonida to'g'ri munosabatga kirishish ko'nikmalarini oshirish nazarda tutiladi. Prognozlash jarayonida esa vaziyatlar modellashtiriladi, muayyan rejalar va ularning natijalari ko'rib chiqiladi. Muamoli oila uchun tanlanga muqobil yechim usulining koefitsientlik darajasi ishlab chiqiladi. Muvofiqlashtirish bosqichida esa amaliy yordam ko'rsatishga kirishiladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki oila mustahkamligini ta'minlash mamalakat taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek xalqi azal-azaldan oilani muqaddas, milliy urf-odatlar va madaniy qarashlar shakllanishida muhim ahamiyat kasb etuvchi makon sifatida qadrlanib kelinadi. Bu borada buyuk allomalarimizdan Ibn Sino "Kitob ush-shifo" asarida oila inqirozi va buzilishiga sabab bo'ladigan omillarni ham ko'rsatib o'tgan:

1. Agarda er va xotinlikdan farzand dunyoga kelmagan bo'lsa;
2. Agarda xotin eriga hiyonat qilib, uning e'tiborini pasaytirsa;
3. Xotin kishi tarbiyasiz bo'lsa-yu, tarbiya olishni istamasa;
4. Er va xotin bir-birlariga yoqmaydigan tabiatli bo'lsa.

Allomalarimiz ta'kidlaganlaridek oila mustahkamligiga rahna soluvchi har qanday to'siqni bartaraf etilishini ta'minlamog'imiz lozim. Yuqorida sanab o'tilgan metod va usullardan foydalanish har doim ham samarali natijaga erishilishini ta'minlamaydi. Bunda xatar guruhidagi oila a'zolari bilan imkon qadar individual ishlash, xatar guruhiga tushib qolish xavfi bo'lgan oilalar bilan keng qamrovli ishlar olib borish, yosh oilalarda shaxslararo munosabatlarning keskinlashuvi, muloqot jarayonidagi kamchiliklarni oldini olish maqsadida oilaga har tomonlama tayyorgarlik ko'nikmalarni shakllantirish, erta turmush qurish holatlarini oldini olish kabi chora-tadbirlar yanada tizimli va aniq maqsadli yo'lga qo'yilsa jamiyatda xatar guruhiga tushib qolgan oilalar soni keskin kamayishiga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://xabar.uz/8sw>
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-Toshkent "O'zbekiston" nashriyoti, 2023. -120 b
3. <https://kun.uz/news/2023/12/12/ozbekistonda-10-oyda-qancha-oila-ajrashgani-ma'lum-boldi>
4. Семья «группы риска» и их характеристика д.д. Ровдо (гиуст бгу) научный руководитель: Преподаватель л.я. Захарчук
5. <https://www.unicef.org/uzbekistan/uz/stories/oilalarni-sifatli-qollab-quvvatlash-ijtimoiy-ishning-asosidir/>